Annotatsiya. Ushbu maqolada global va milliy turizm industriyasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining o'rni, ularning biznes modellarini transformatsiya qilishdagi ahamiyati hamda iste'molchi xatti-harakatlariga ta'siri kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida generativ SI vositalarining shaxsiylashtirilgan xizmatlarni shakllantirish, operatsion samaradorlikni oshirish va turizm sohasida mavjud bo'lgan "fragmentar" ma'lumotlar muammosini bartaraf etishdagi imkoniyatlari baholangan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston turizm bozorining so'nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi tahlil qilinib, sohani modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash tizimini yangilash hamda barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, generativ AI, smart tourism, ma'lumotlar integratsiyasi, shaxsiylashtirish, turizm dinamikasi, raqamli transformatsiya, O'zbekiston turizmi.

Abstract. This article examines the role of Artificial Intelligence (AI) technologies in the global and national tourism industries, their importance in transforming business models, and their impact on consumer behavior. The study analyzes the potential of generative AI tools in delivering personalized services, enhancing operational efficiency, and addressing the issue of "fragmented" data within the tourism sector. In addition, the article explores recent dynamics of the Uzbekistan tourism market and proposes practical recommendations for sector modernization, improvement of human capital training systems, and the development of sustainable tourism.

Key words: artificial intelligence, generative AI, smart tourism, data integration, personalization, tourism dynamics, digital transformation, Uzbekistan tourism.

Аннотация. В данной статье исследуется роль технологий искусственного интеллекта (ИИ) в глобальной и национальной туристической индустрии, их значение в трансформации бизнес-моделей, а также влияние на поведение потребителей. В рамках исследования проанализированы возможности инструментов генеративного ИИ в персонализации туристических услуг, повышении операционной эффективности и решении проблемы «фрагментарных» данных в сфере туризма. Кроме того, в статье рассматривается динамика развития туристического рынка Узбекистана за последние годы и выдвигаются практические рекомендации по модернизации отрасли, обновлению системы подготовки кадров и развитию устойчивого туризма.

Ключевые слова: искусственный интеллект, генеративный ИИ, смарт-туризм, интеграция данных, персонализация, динамика туризма, цифровая трансформация, туризм Узбекистана.



KIRISH

Raqamli transformatsiya turizm sanoatini chuqur o'zgartirmoqda. Globallashuv jarayonlarining tezlashishi, o'z navbatida, turizm sohasida ko'rsatiladigan xizmatlarning turlari va ko'rinishlariga, shuningdek, ularning sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Onlayn bronlash platformalari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan — xususan, ma'lumotlarni qidirish, o'ziga xos axborot manbai sifatida foydalanish, tavsiyaviy xarakterga ega yechimlarni ishlab chiqish hamda ko'p tilli muloqotni muammosiz amalga oshirish imkoniyatlari — turistik xizmatlar dizayni va sifatini tubdan yangilamoqda.

Jahon miqyosida 2024-yilda xalqaro sayohatlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlar pandemiyadan oldingi darajalarga deyarli qaytdi. Mazkur holat xizmat ko'rsatuvchi subyektlar uchun o'zgaruvchan talablarga moslashishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2025-yil may oyida e'lon qilingan Jahon sayyohlik barometriga ko'ra, 2025-yilning dastlabki uch oyida 300 milliondan ortiq sayyoh xalqaro miqyosda sayohat qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan qariyb 14 millionga ko'pdur. Ushbu o'sish o'tgan yilga nisbatan 5 foizni, 2019-yil — pandemiyadan oldingi davrga nisbatan esa 3 foizni tashkil etgan [1].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Turizm Tashkiloti Bosh kotibi Zurab Pololikashvili ushbu jarayonni quyidagicha izohlaydi: “2024-yilda global turizm sanoatining tiklanish jarayoni asosan yakunlandi. Dunyoning ko'plab hududlarida yo'lovchilar oqimi va sanoat daromadlari pandemiyadan oldingi darajalardan oshib ketdi. Bozor talabining yanada o'sishi bilan global turizm sanoati 2025-yilda ham jadal sur'atlarda rivojlanishi kutilmoqda” [2].

Har bir global mintaqada turizm millionlab ish o'rinlari yaratadigan hamda turli hajmdagi biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlovchi yetakchi xizmatlar sohasi sifatida ajralib turadi. O'zbekiston ham so'nggi yillarda turizm oqimlari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini jadal kengaytirayotgan hamda tizimli ravishda transformatsiya qilayotgan davlatlar qatoriga kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash masalasi so'nggi yillarda xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, SI nafaqat texnologik innovatsiya, balki turizm biznes modelini tubdan o'zgartiruvchi strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotchi N. Gretzel va uning hammualliflari o'z ilmiy ishlarida “Smart Tourism” tushunchasini shakllantirib, ma'lumotlarning tarqoqligi mijoz tajribasini cheklovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Mazkur tadqiqotda keltirilgan Yaponiya rezidentlarining sayohat ma'lumotlari tahlili ham aynan ma'lumotlar yetishmovchiligi shaxsiylashtirilgan xizmatlar sifatiga to'sqinlik qilishini tasdiqlaydi [3].

D. Searls tomonidan ilgari surilgan “Intention Economy” konsepsiyasi an'anaviy CRM tizimlaridan farqli ravishda, ma'lumotlar boshqaruvini bevosita iste'molchining o'ziga topshirishni nazarda tutuvchi VRM (Vendor Relationship Management) modelini asoslab beradi. Ushbu yondashuv turizm sohasida mavjud “parchalangan” ma'lumotlar muammosini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Mahalliy tadqiqotchilardan B.Sh. Safarov turizm axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib borgan izlanishlarida raqamli platformalar turistik xizmatlar sifatini oshirishning asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi. Uning ilmiy qarashlari mazkur maqolada ilgari surilgan SI yordamida “fragmentar” ma'lumotlarni integratsiyalash zaruriyati bilan uyg'unlashadi [5]. I.S. Tuxliyev va uning ilmiy maktabi vakillari esa “Aqli turizm” (Smart Tourism) konsepsiyasini O'zbekiston sharoitida joriy etish metodologiyasini ishlab chiqqanlar. Ular turizm innovatsion klasterlarni shakllantirish jarayonida sun'iy intellekt va “Katta ma'lumotlar” (Big Data) bilan ishlash strategik ustuvorlik ekanligini ilmiy asoslab berganlar [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda zamonaviy turizm sanoatida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining o'rni va ularning qabul qilinish darajasini aniqlash maqsadida miqdoriy va sifat tahliliga asoslangan mixed methods research yondashuvidan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Ma'lumotlar manbalari va tanlanma. Tadqiqotning empirik asosi sifatida xalqaro miqyosda tan olingan quyidagi ikkilamchi ma'lumotlar (secondary data) manbalari tanlab olindi. Iste'molchilar xulq-atvorini tahlil qilishda YouGov xalqaro tadqiqot agentligining “International Travel & Tourism Report 2023” hisobotidan foydalanildi. Unda AQSh va Buyuk Britaniyada istiqomat qiluvchi 19 000 dan ortiq respondentlarning javoblari qiyosiy tahlil qilindi.

Texnologik adaptatsiya sur'atlarini baholash jarayonida ChatGPT platformasining ommalashish darajasini aniqlash uchun UBS banki va Reuters agentligi tomonidan e'lon qilingan statistik tahlillar, shuningdek, Ernst & Young (EY) kompaniyasining qiyosiy grafik materiallaridan foydalanildi. Turizm sohasida SI texnologiyalarining



amaliy samaradorligini o'rganish maqsadida esa Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) hamda Microsoft tomonidan 2024-yilda e'lon qilingan "AI in Action" hisobotidagi sanoat keyslariga murojaat qilindi.

2. Tadqiqot usullari. Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida qiyosiy tahlil (comparative analysis) usuli orqali AQSh va Buyuk Britaniya bozorlarida iste'molchilarning SI texnologiyalariga — xususan, tarjimonlar, tavsiyaviy tizimlar va chatbotlarga — bo'lgan moyilligi foiz ko'rsatkichlari asosida solishtirildi. Tendensiyalar tahlili doirasida ChatGPT, TikTok va Instagram platformalarining 100 million foydalanuvchiga erishish muddati xronologik tartibda qiyoslanib, generativ SI texnologiyalarining jozibadorligi baholandi.

Shuningdek, keys-stadi (case study) tahlili orqali Hilton mehmonxonalar tarmog'ining Birlashgan Arab Amirliklarida amalga oshirilgan "Green Breakfast" pilot loyihasi misolida SI texnologiyalarining ekologik (CO_2 chiqindilarining kamayishi) va iqtisodiy (chiqindilar hajmining qisqarishi) samaradorligi o'rganildi.

3. Ma'lumotlarni taqdim etish. To'plangan statistik ma'lumotlar va vizual grafiklar turizm industriyasining raqamli transformatsiyasi nuqtai nazaridan umumlashtirildi. Bunda asosan iste'molchi talabi va texnologik imkoniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda korrelyatsiyaga alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal integratsiyalashuvi global iqtisodiy makonda tub burilish yasash salohiyatiga ega. Turli xalqaro ekspertlik institutlari prognozlariga ko'ra, 2030-yilga kelib SI tomonidan jahon iqtisodiyotiga qo'shiladigan qo'shimcha qiymat 15,7 trilliondan 19,9 trillion AQSH dollarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkich nafaqat texnologik taraqqiyotni, balki yalpi ichki mahsulot tarkibining sifat jihatidan o'zgarishini ham anglatadi.

Biroq iqtisodiy o'sish sur'atlari mehnat bozoridagi jiddiy transformatsion jarayonlar bilan parallel ravishda kechmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) hisobotlarida ta'kidlanishicha, 2025-yilga borib inson va mashina o'rtasidagi mehnat taqsimotining qayta ko'rib chiqilishi natijasida taxminan 85 million an'anaviy ish o'rni dolzarbligini yo'qotishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur jarayon bir tomonlama xarakterga ega emas, chunki iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi natijasida 97 millionga yaqin yangi turdagi ish o'rinlari yaratilishi prognoz qilinmoqda.

Mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar tahlili quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Avtomatlashtirish xavfi yuqori bo'lgan sohalar asosan bir xil tartibdagi operatsiyalar va resurs xizmatlariga asoslangan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. SI ushbu funksiyalarni tezroq va samaraliroq bajarish orqali mehnat unumdorligini oshirsa-da, ayrim kasblar uchun ishchi kuchining siqib chiqarilishi xavfini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, yangi imkoniyatlar vektori shakllanib, yangi yaratiladigan ish o'rinlari asosan yuqori texnologik kompetensiyalar, kreativ fikrlash va SI tizimlarini boshqarish qobiliyatini talab etmoqda.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, yuzaga kelayotgan disbalansni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida "qayta malaka oshirish" (reskilling) va "malaka darajasini yuksaltirish" (upskilling) strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Faqat texnologiyani joriy etishning o'zi yetarli emas, balki asosiy e'tibor ishchi kuchini sun'iy intellektga asoslangan yangi iqtisodiy modelga moslashtirishga qaratilishi lozim.

Global turizm sektori bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'sirida yuzaga kelayotgan fundamental transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Raqamli intellektning servis sohasiga joriy etilishi nafaqat xizmat ko'rsatish tezligini oshirdi, balki mijozlar ehtiyojlarini qondirishning sifat jihatidan yangi bosqichi — giper-shaxsiylashtirish darajasini shakllantirdi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari turistik xizmatlarni individuallashtirish jarayonida uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, intellektual prognozlash va tavsiyalar yo'nalishida katta hajmli ma'lumotlar (Big Data) tahliliga asoslangan algoritmlar foydalanuvchining avvalgi tanlovlari va joriy tendensiyalarini hisobga olgan holda moslashtirilgan marshrutlar hamda lokatsiyalarni taklif etmoqda. Bu esa qaror qabul qilish vaqtini qisqartirib, servisga bo'lgan sodiqlik darajasini oshiradi. Ikkinchidan, virtual yordamchilar ekotizimi shakllanib, 24/7 rejimida faoliyat yurituvchi aqlli chatbotlar operatsion xarajatlarni optimallashtirish bilan birga foydalanuvchi so'rovlariga tezkor javob berish imkonini yaratmoqda. Natijada inson omili bilan bog'liq navbatlar va kechikishlar muammosi sezilarli darajada kamaymoqda. Uchinchidan, ovozli boshqaruv texnologiyalari jadal rivojlanib, mehmonxona biznesida Alexa, Google Assistant va Alisa kabi tizimlarning joriy etilishi "aqlli xona" konsepsiyasini shakllantirib, mehmonlar uchun kontaktsiz va yuqori texnologik qulayliklarni ta'minlamoqda.

YouGov tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari turizmga SIning qabul qilinish darajasi mintaqaviy xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi (1-jadval).



1-jadval. AQSh va Buyuk Britaniyada YouGov tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari [7]

Ko'rsatkichlar	Buyuk Britaniya (%)	AQSH (%)
SIdan foydalanishga moyillik (jami)	42	42
Til tarjimonlaridan foydalanish	25	31
Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar olish	14	22
Real vaqt rejimidagi chatbot yordami	11	19

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSH sayohatchilari texnologik yangiliklarga nisbatan britaniyaliklarga qaraganda ancha ochiq va moslashuvchidir. Shunga qaramay, respondentlarning 28 foizi hanuzgacha an'anaviy rejalashtirish usullarini afzal ko'rmoqda. Bu esa soha mutaxassislaridan texnologik innovatsiyalarni joriy etishda inklyuzivlikni, ya'ni barcha qatlamlarni qamrab olishni ta'minlashni talab etadi.

SIning amaliy ahamiyati faqat servis jarayonlari bilan cheklanib qolmay, xavfsizlik masalalarida ham hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Dunyoning eng yirik onlayn platformalaridan biri — Booking.com tajribasi shuni ko'rsatadiki, mashinali o'qitish (Machine Learning) algoritmlari fribgarlikni aniqlash jarayonida "noto'g'ri pozitivlar", ya'ni qonuniy to'lovlarning fribgarlik sifatida asossiz rad etilishi holatlari sonini keskin kamaytirgan.

Mazkur yondashuv ikki tomonlama strategik ahamiyatga ega:

1. Iste'molchi ishonchi: mijozlarning moliyaviy operatsiyalari asossiz bloklanishining oldi olinadi.

2. Kichik va o'rta biznesni himoya qilish: platformada faoliyat yurituvchi kichik mehmoxonalar va tadbirkorlar uchun kiberxavf darajasi pasaytiriladi hamda iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

2022-yil noyabr oyida OpenAI tomonidan ChatGPT platformasining taqdim etilishi global raqamli makonda texnologik inqilob jarayonini boshlab berdi. Ushbu generativ model nafaqat texnologik imkoniyatlar chegarasini kengaytirdi, balki insoniyatning sun'iy intellekt (SI) bilan o'zaro aloqasini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda generativ SI kundalik turmush tarzi va ommaviy axborot makonining ajralmas qismiga aylangan.

ChatGPT ommalashish sur'ati bo'yicha rekord ko'rsatkichlarni qayd etdi. Platforma ishga tushirilganidan so'ng bor-yo'g'i ikki oy ichida 100 million faol foydalanuvchidan iborat auditoriyani to'pladi. Ushbu ko'rsatkichni boshqa global platformalar bilan qiyoslash texnologiyani qanchalik jozibador ekanligini ko'rsatadi:

- ChatGPT: 2 oy;
- TikTok: 9 oy;
- LINE: 19 oy.

SIning bunday shiddat bilan ommalashuvi uning "demokratlashuvi" bilan izohlanadi. Ochiq manbali texnologiyalar va intuitiv, tushunarli interfeyslar tufayli murakkab algoritmik tizimlar keng omma uchun ochiq hamda foydalanishga sodda vositaga aylandi.

Sun'iy intellektning iqtisodiy salohiyati nafaqat foydalanuvchilar soni, balki uning yalpi ichki mahsulotga (YAIM) qo'shayotgan hissasi orqali ham baholanadi. Statista tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, SI jahon bozori 2030-yilga kelib 1,84 trillion AQSH dollaridan oshishi kutilmoqda.


Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2024–2030-yillar oralig'ida yillik o'sish sur'ati (CAGR) o'rtacha 35,5 foizni tashkil etadi. Mazkur jarayonning makroiqtisodiy ta'sirini quyidagi muhim ko'rsatkichlarda ko'rish mumkin:

• Iqtisodiy samaradorlik: SI texnologiyalarini joriy etish global ishlab chiqarishda 2,6 trilliondan 4,4 trillion AQSH dollarigacha qo'shimcha qiymat yaratishi mumkin (bu 15–40 foizlik o'sishni anglatadi).

• YAIMga ta'siri: kelgusi o'n yillikda SI jahon yalpi ichki mahsulotini 7 foizga, ya'ni taxminan 7 trillion AQSH dollariga oshirish salohiyatiga ega.

• Mehnat unumdorligi: texnologik optimallashtirish hisobiga global mehnat unumdorligining yillik o'sishi 1,5 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, generativ sun'iy intellekt shunchaki matn yaratish vositasi bo'lib qolmay, balki global iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, xususan, turizm industriyasini tubdan o'zgartiruvchi strategik resursga aylanmoqda (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarning 100 mln foydalanuvchiga erishish ketgan vaqt

ChatGPT platformasining ommalashuv tezligi zamonaviy raqamli iqtisodiyot tarixida misli ko'rilmagan hodisa hisoblanadi. 100 million foydalanuvchidan iborat auditoriyani qamrab olish uchun sarflangan vaqt bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, generativ sun'iy intellekt an'anaviy ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarga nisbatan bir necha barobar tezroq o'sish sur'atlarini namoyon etgan.

Turli platformalarning 100 million foydalanuvchiga erishish muddati (oy hisobida) quyidagicha:

- ChatGPT: 2 oy — mutlaq rekord ko'rsatkich;
- TikTok: 9 oy — ChatGPTga nisbatan 4,5 barobar sekinroq;
- LINE: 19 oy;
- Instagram: 30 oy;
- X (sobiq Twitter): 49 oy;
- Facebook: 54 oy [8].

Ushbu ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, Facebook kabi gigant platformaga o'z auditoriyasini shakllantirish uchun 4,5 yildan ortiq vaqt talab etilgan bo'lsa, ChatGPT bu natijaga bor-yo'g'i 60 kun ichida erishgan. Mazkur holat iste'molchilarning sun'iy intellektga asoslangan mahsulotlarga bo'lgan yuqori ishonchi hamda texnologiyaning tezkor ommaboplashuvi bilan izohlanadi.

Bunday shiddatli integratsiya turizm kabi xizmat ko'rsatish sohalari uchun ham yangi standartlarni belgilab bermoqda. Endilikda mijozlar texnologik yechimlardan nafaqat funksionallikni, balki tezkorlik va aniq javob olish imkoniyatini ham kutmoqdalar.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining bozor hajmi va ularning xalqaro iqtisodiy tizimlarga ta'siri bugungi kunda makroiqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Turli nufuzli manbalar ushbu sohaning misli ko'rilmagan o'sish sur'atlarini prognoz qilmoqda.

Bozor o'sishining prognoz ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- Bozor qiymati: Statista tahlillariga ko'ra, 2030-yilga kelib global SI bozori 1,84 trillion AQSH dollari (taxminan 276 trillion iyena) miqdoridan oshishi kutilmoqda.
- Yillik o'sish dinamikasi: 2024–2030-yillar oralig'ida bozorning yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) o'rtacha 35,5 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.
- Iqtisodiy qo'shimcha qiymat: SI texnologiyalarining turli sohalarga tatbiq etilishi global ishlab chiqarish hajmini 4,4 trillion AQSH dollarigacha oshirishi mumkin.
- O'sish koeffitsiyenti: texnologik integratsiya umumiy iqtisodiy o'sishni 15–40 foiz diapazonida tezlashtirish salohiyatiga ega.

Mehmonxona industriyasi vakillari o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, respondentlarning 63 foizi daromadlarni boshqarish (Revenue Management) jarayonida SI algoritmlaridan foydalanishini bildirgan. Ushbu jarayon bozor tendensiyalarini monitoring qilish, raqobatchilar faoliyatini tahlil etish hamda dinamik narx belgilash bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi.



Sohaning yetakchi kompaniyalari SI imkoniyatlarini turli funksional yo'nalishlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazmoqda:

1. Shaxsiylashtirilgan xizmatlar: Recruit (Jalan) va Kayak platformalari foydalanuvchi preferensiyalariga asoslangan moslashuvchan chat-tizimlarni joriy etgan.

2. Operatsion barqarorlik: United Airlines parvozlardagi uzilishlar va kechikishlar haqida mijozlarni real vaqt rejimida xabardor qilishda SI modellaridan foydalanmoqda.

3. Moliyaviy avtomatlashtirish: Concur Travel generativ SI yordamida biznes-sayohat xarajatlarini avtomatik qayta ishlash vositasini taqdim etdi.

4. Ovozli texnologiyalar: Priceline kompaniyasi OpenAI'ning ilg'or ovozli rejimini (Advanced Voice Mode) chatbotlarga integratsiya qilish orqali foydalanuvchi tajribasini (UX) soddalashtirmoqda.

Tahlillar natijasida turizm SI qo'llanilishini quyidagi tizimli yondashuvlarga ajratish mumkin:

- Individualizatsiya: retrospektiv (tarixiy) ma'lumotlar asosida mijoz qoniqish darajasini oshiruvchi eksklyuziv tavsiyalarni shakllantirish.

- Avtomatlashtirish: operatsion samaradorlikni oshirish bilan birga, xizmat paketlarini iste'molchi ehtiyojlariga mos holda bron qilish imkoniyatini yaratish.

- Kommunikatsion evolyutsiya: chatbotlar va avtomatlashtirilgan tarjimonlar orqali muloqot sifatini yaxshilash, shuningdek, raqamli avatarlar hamda kengaytirilgan haqiqat (XR) texnologiyalari asosida yangi aloqa kanallarini rivojlantirish.

Sun'iy intellektning turizm industriyasidagi transformatsion kuchi nafaqat nazariy prognozlarida, balki bozor yetakchilarining kundalik operatsiyalarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2023-yildan boshlab yirik platformalar generativ SI texnologiyalarini o'z ekotizimlariga jadal integratsiya qila boshladi.

So'nggi yillarda turistik xizmatlarni bron qilish va rejalashtirishda quyidagi texnologik yutuqlar kuzatildi:

- Expedia: 2023-yilda mobil ilovaga integratsiya qilingan SI chatbotini ishga tushirdi. Ushbu tizim foydalanuvchi bilan muloqot asosida sayohat yo'nalishlari, turar joy va ko'ngilochar maskanlar bo'yicha shaxsiylashtirilgan tavsiyalar beradi.

- Tripadvisor: generativ SI yordamida foydalanuvchilarning individual xohishlariga moslashtirilgan eksklyuziv sayohat marshrutlarini yaratish funksiyasini joriy etdi.

- Trip.com: kompaniya tomonidan taqdim etilgan "TripGen" chatboti tezkor maslahatlar, ilhomlantiruvchi g'oyalar va tayyor marshrut rejalarini taklif etish orqali mijozlar bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi.

- Airbnb: platforma uy egalari uchun SI asosidagi "Photo Tour" funksiyasini ishga tushirdi hamda SI loyihalarini jadallashtirish maqsadida GamePlanner.AI startapini sotib oldi [9].

SIning turizmga ta'siri faqat mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, balki korporativ ijtimoiy mas'uliyat va barqarorlik ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, Hilton mehmonxonalar tarmog'i Birlashgan Arab Amirliklaridagi 13 ta mehmonxonasida SI asosidagi "Green Breakfast" pilot dasturini joriy etdi. Natijada oziq-ovqat chiqindilari 62 foizga qisqarib, bir yil davomida atmosferaga chiqariladigan CO₂ emissiyasi 726 tonnaga kamaytirildi [10].

Hiltonning BAA'dagi shaxsiylashtirilgan xizmat modeli O'zbekistonning tarixiy shaharlarida — Samarqand, Buxoro va Xivada — mehmonxona servislarni rivojlantirish uchun muhim andoza bo'la oladi. Generativ SI yordamida xorijiy turistlarning milliy qadriyatlar va tarixiy obidalarga bo'lgan qiziqishini oldindan tahlil qilish, ularga umumiy marshrutlardan ko'ra shaxsiy hissiy qarashlarga mos eksklyuziv yo'nalishlarni taklif etish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, generativ modellar, xususan, ChatGPT kabi tizimlar tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchiligi hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ochiq manbalarga tayanadigan bepul ma'lumotlar bazalari asosida ishlovchi SI modellari ayrim hollarda eskirgan reyslar yoki yopilgan lokatsiyalar haqida noto'g'ri ma'lumot berishi, shuningdek, ma'lumotlar yetishmagan vaziyatlarda ishonchli ko'ringan, ammo xato bo'lgan javoblar — "gallyutsinatsiyalar"ni yaratishi mumkin.


Shu sababli, ko'plab turistik brendlar SI modellarini o'zlarining xususiy (lokal) ma'lumotlar to'plamlari bilan integratsiya qilish orqali tizim aniqligini oshirishga intilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar hajmidan ko'ra ularning ishonchiligi va yangiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

"Giper-shaxsiylashtirish" (hyper-personalization) konsepsiyasi foydalanuvchining o'tmishdagi xatti-harakatlari va shaxsiy preferensiyalari bo'yicha katta hajmdagi tarixiy ma'lumotlarni talab etadi. Biroq turizm sohasida bunday ma'lumotlarni to'plashda qator muammolar mavjud. Jumladan, sayohat kundalik faoliyat emasligi sababli tranzaksiyalar sonining kamligi va sayohatchilar qiziqishlarining vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchanligi bashoratlarning aniqligini pasaytiradi. Masalan, 2022-yilda Yaponiyada har bir rezidentga o'rtacha 1,86 ta tungi va 1,48 ta kunlik sayohat to'g'ri kelgan.

Yaponiya tajribasida kuzatilgan ma'lumotlar fragmentatsiyasi muammosi O'zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanadi. 2021-yildagi 1 881,4 ming nafar turist ko'rsatkichidan 2025-yil yanvar-oktyabr holatiga kelib 9 722,5 ming nafargacha bo'lgan o'sish sharoitida turistlar oqimini sifatli boshqarish uchun tarqoq ma'lumotlarni

yagona ekotizimga birlashtirish va har bir sayohatchining individual ehtiyojlarini chuqur o'rganish strategik ahamiyat kasb etadi.

Turizm sanoatining asosiy qismini tashkil etuvchi kichik va o'rta korxonalar yirik texnologik platformalar bilan teng darajada ma'lumot to'plash imkoniyatiga ega emas. Bu holat bozor kon'yunkturasida sezilarli disbalansni yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, resurslar tanqisligi kichik operatorlarning shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini cheklasa, ikkinchi tomondan, mintaqaviy darajada identifikatorlarni o'zaro bog'lash va tarqoq ma'lumotlarni yagona tizimga integratsiyalash orqali ushbu muammoni yumshatish yo'nalishida izlanishlar olib borilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Turizm sohasida mijozlar ma'lumotlarini boshqarish modeli (muallif tomonidan tuzilgan)

Ushbu model turizm ekotizimida ma'lumotlar tarqoqligi muammosini va uni bartaraf etishning zamonaviy yechimlarini tahlil qiladi. Modelning asosiy mazmunini quyidagi uchta muhim nuqtaga ajratish mumkin.

Ma'lumotlar fragmentatsiyasi (tarqoqlik). Hozirgi kunda restoranlar, mehmonxonalar va savdo shoxobchalari sayohatchi haqida faqat o'z xizmatlari doirasida cheklangan, ya'ni "parchalangan" ma'lumotlarga ega. Natijada mijozning to'liq ehtiyojlari yaxlit tarzda shakllanmaydi, bu esa unga yuqori sifatli va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Yondashuvlarning o'zgarishi. Eskirgan vertikal integratsiya usuli, ya'ni faqat bitta tarmoq doirasida ma'lumot to'plash amaliyoti o'rniga, bugungi kunda bizneslararo hamkorlik va mijozdan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot olish strategiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Emotsional tahlil va shaxsiylashtirish. Zamonaviy yechimlarning asosiy maqsadi nafaqat sayohatchining qayerga borganini qayd etish, balki uning butun sayohat jarayonidagi hissiy munosabatlarini (emotsiyalarini) tushunishdan iborat. Mazkur yondashuv turizm obyektlariga har bir sayohatchi uchun individual va takrorlanmas tajriba yaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, model turizm sanoati "shunchaki xizmat ko'rsatish" bosqichidan "mijoz tajribasini kompleks boshqarish" bosqichiga o'tayotganini yaqqol namoyon etadi. Turizm sohasidagi SI tizimlarining asosiy muammosi aynan ma'lumotlarning tarqoqligi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda kompaniyalarning aksariyati sayohatchining umumiy "shaxsiyati" (persona) haqida faqat fragmentar tasavvurga ega.



Sun'iy intellekt va ma'lumotlar integratsiyasi yetkazib beruvchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Avvalo, ehtiyojlarni identifikatsiyalash imkoniyati paydo bo'ladi. Agar tizim sayohatchining shaxsiy didini, masalan, "shahar markazidan uzoqda tabiat qo'ynida dam olish" yoki "do'stlar bilan barbekyu tashkil etish" kabi afzalliklarni aniqlay olsa, xizmat ko'rsatuvchilar misli ko'rilmagan qiymat taklif qila oladilar. Shuningdek, bevosita aloqa imkoniyati kengayadi: sayohatchilarning afzalliklari aniq bo'lganda, yetkazib beruvchilar birinchi marta vositachilarsiz mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish va ularning ehtiyojlariga mos xizmatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, mazkur model resurslari cheklangan kichik va o'rta korxonalar uchun ham o'z murojaatlarini maqsadli auditoriyaga samarali yetkazish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda ham texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida generativ sun'iy intellektni biznes amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish va integratsiyalash zarurati har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Chunki ushbu jarayon turar joy, transport va ko'ngilochar sohalarni yagona, aqlli ekotizimga birlashtirish orqali turizm sanoatining yangi bosqichini boshlab beradi. Generativ SI nafaqat turizm sohasida inqilobiy o'zgarishlar keltirib chiqarmoqda, balki kelgusi yillarda sohadagi fundamental biznes modellarini qayta shakllantirish salohiyatiga ega (3-rasm).



3-rasm. O'zbekistonning 2021–2025-yillardagi xorijiy turistlar oqimi dinamikasi¹ (ming kishi) [11]

Taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi besh yil ichida O'zbekiston turizm sektori misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Grafikda keltirilgan raqamlar shunchaki statistik ko'rsatkichlar emas, balki sohada amalga oshirilgan tizimli islohotlarning amaliy natijasidir. Tiklanish va jadal o'sish bosqichida, ya'ni 2021-yilda turistlar soni 1 881,4 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich qariyb uch baravarga oshib, 5 232,8 ming nafarga yetdi. Bu holat pandemiyadan keyingi "rebound", ya'ni qayta tiklanish effektining yaqqol ifodasidir.

2023–2024-yillarda mos ravishda 6 626,3 va 8 181,4 ming nafar ko'rsatkichlar turistlar oqimi o'sish sur'atlarining barqarorlashganini va bozor kengayishda davom etayotganini ko'rsatadi. 2025-yilda (yanvar–oktyabr) turistlar oqimining 9 722,5 ming nafargacha jadal o'sishi esa soha subyektlari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Endilikda miqdoriy o'sishni sifatli xizmatlarga aylantirish uchun tarqoq ma'lumotlardan voz kechish va sayohatchining emotsional munosabatlariga asoslangan shaxsiylashtirilgan xizmatlarni joriy etish strategik zaruriyatga aylanmoqda.

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida



O'zbekistonning turizm ekotizimini sun'iy intellekt yordamida modernizatsiya qilish uchun quyidagi strategik qadamlar taklif etiladi: turli xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi uchun yagona ma'lumotlar infratuzilmasi sifatida milliy platformani yaratish; Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik turistik markazlarda "Smart Tourism" yo'nalishida SI-eksperiment zonalari va pilot loyihalarni ishga tushirish; turizm sohasida faoliyat yurituvchi kadrlar uchun SI-savodxonlik bo'yicha maxsus treninglar va o'quv dasturlarini joriy etish; SI texnologiyalarini sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi regulativ "sandbox", ya'ni vaqtinchalik huquqiy va me'yoriy yengilliklar rejimini shakllantirish; turizm SI yechimlarini taklif etuvchi mahalliy texnologik startaplarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash; shuningdek, SI yordamida ekologik integratsiyani kuchaytirish, barqaror turizm ko'rsatkichlarini monitoring qilish va uglerod emissiyasini kamaytirish choralarini amalga oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt texnologiyalarining turistik xizmatlar ko'rsatish zanjiridagi strategik o'rnini fundamental asoslab berdi. O'zbekiston turizm bozorining so'nggi yillardagi shiddatli o'sishi SI yechimlarini milliy miqyosda joriy etish uchun qulay imkoniyat yaratmoqda.

Tahlillar natijasida turizm sektorida generativ SI qo'llanilishining quyidagi ustuvor yo'nalishlari aniqlandi:

- Shaxsiylashtirilgan o'zaro ta'sir: tarixiy bandlov ma'lumotlari va foydalanuvchi preferensiyalari asosida har bir sayohatchi uchun ekslyuziv takliflar shakllantiriladi.
- Operatsion samaradorlik: daromadlarni boshqarish va narxlarni dinamik belgilash kabi jarayonlarni avtomatlashtirish orqali biznes unumdorligi oshiriladi.
- Kommunikatsion evolyutsiya: chatbotlar va ovozli interfeyslar (masalan, Priceline integratsiyasi) orqali til to'siqlari bartaraf etilib, foydalanuvchi tajribasi (UX) yaxshilanadi.

SI o'zining ulkan salohiyatiga qaramay, ma'lum cheklovlarga ega. Avvalo, ma'lumotlar tanqisligi muammosi mavjud bo'lib, sayohatlarning mavsumiy va kam sonli xarakterga egaligi (masalan, Yaponiyadagi past o'rtacha ko'rsatkichlar) shaxsiylashtirish jarayonida ma'lumotlar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Shuningdek, sifat va ishonchlilik masalasi dolzarbligicha qolmoqda, chunki generativ modellar eskirgan ma'lumotlar yoki "gallyutsinatsiyalar" taqdim etishi ehtimoli yuqori bo'lib, bu holat xususiy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashuv zaruratini kuchaytiradi.

Generativ sun'iy intellektning paydo bo'lishi turizm biznes modelini shunchaki shaklan o'zgartirmasdan, balki uni tubdan qayta kashf etishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon yetkazib beruvchilarga (mehmonxonalar, transport va mahalliy servislar) vositachilarsiz mijozlar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, mehnat bozorida ham sezilarli transformatsiya kuzatilmoqda: endilikda oddiy ma'lumot yig'uvchilar emas, balki ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va ulardan mazmunli strategik tushunchalar (insight) olish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarga talab ortib bormoqda.

Ushbu tadqiqot xulosalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Ma'lumotlar ekotizimini yaratish — kichik biznes subyektlari uchun yirik platformalar bilan raqobatlasha oladigan ochiq va integratsiyalashgan ma'lumotlar infratuzilmasini shakllantirish.
- Kadrlar transformatsiyasi — ta'lim dasturlariga SI tahlili natijalarini talqin qilish hamda strategik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini tizimli ravishda integratsiya etish.
- Ekologik barqarorlik integratsiyasi — SI yordamida resurslar sarfini optimallashtirish, xususan, Hilton tajribasida kuzatilganidek, oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UN Tourism. UN Tourism World Tourism Barometer Data. <https://www.untourism.int/un-tourism-world-tourism-barometer-data>
2. International tourism has basically recovered to the pre-epidemic level. <http://uz.clmlaundry.com/news/international-tourism-has-basically-recovered-to-the-pre-epidemic-level/>
3. Gretzel, U., et al. Smart Tourism: Foundations and Developments. Electronic Markets, 2015.
4. Searls, D. The Intention Economy: When Customers Take Charge. Harvard Business Review Press, 2012.
5. Safarov, B.Sh. Turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyalari. Monografiya, 2020.
6. Tuxliyev, I.S., Kudratov, G'.H., Pardaev, M.Q. Turizm iqtisodiyoti. Darslik, 2018.
7. YouGov. Understanding Travel in the Era of AI. <https://yougov.com/articles/49456-understanding-travel-in-the-era-of-ai>
8. Ernst & Young (EY). How Generative AI Is Transforming the Tourism Industry. https://www.ey.com/en_jp/insights/consulting/how-generative-ai-is-transforming-the-tourism-industry
9. EYSC, WTTC. Artificial Intelligence (AI) in Action: Use Cases & Impacts of AI in Society, Business and Travel & Tourism. January 2024.
10. Hilton. Hilton Green Breakfast Records 62 Percent Reduction in Food Waste in UAE. <https://stories.hilton.com/emea/releases/hilton-green-breakfast-records-62-percent-reduction-in-food-waste-uae>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti. <https://stat.uz>



12. Begimqulov, J.J.o'. (2025). Analysis of Factors Influencing Tourist Services in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(3), 872–877. <https://doi.org/10.51699/cajitm.v6i3.914>
13. Юсуфалиев О., Бегимкулов Ж. (2025). Совершенствование методологии использования предпринимательской деятельности для повышения благосостояния населения. Экономическое развитие и анализ, 3(4), 396–403. <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/91647>
14. Бегимкулов Ж., Сю Н., Фэй Г. (2025). Развитие туристических услуг: китайский опыт. Interpretation and Researches, 3(49). <https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/72971>
15. Бегимкулов Ж. (2024). Развитие туристских услуг на основе маркетинга. Передовая экономика и педагогические технологии, 1(1), 54–62. <https://inlibrary.uz/index.php/aapt/article/view/59945>
16. Begimqulov, J., Xu, N., & Fei, G. (2025). Tourism Services Development: The Chinese Experience. Interpretation and Researches, 3(49). <https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/72971>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>